

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI



“TASDIQLAYMAN”
institut rektori, qabul
komissiyasi raisi


M. Po'latov
2026 y.

**TURIZM VA MEHMONDO‘STLIK
O‘RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA’LIM
MUTAXASSISLIGI BO‘YICHA BITIRUVCHILAR
UCHUN SUHBAT SAVOLLARI**

Tuzuvchilar: prof. S.A. Abduxamidov
prof.v.b. R.S. Amriddinova

Suhbat savollari “Turizm” kafedrasining
2026-yil _____dagi ____-sonli yig‘ilishida
muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Kafedra mudiri  S.A. Abduxamidov

Turizm o'rta maxsus professional ta'lim mutaxassisligi bo'yicha bitiruvchilar uchun suhbat savollari:

I. Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish

1. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida iqtisodiy soha bo'yicha qanday asosiy ustuvor yo'nalishlar belgilangan?

2. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida turizm sohasi rivojiga oid qanday masalalar ko'tarilgan? Bunda turizmga qanday ustuvor yo'nalishlar va dolzarb ahamiyat berilgan?

3. 2019 — 2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan ustuvor vazifalar nimalardan iborat?

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26-apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-135-sonli qaror asosida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

5. "Turizm to'g'risida"gi 2019 yilgi yangi qonunning asosiy o'zgarishlari va ularning amaliy ahamiyatini tushuntiring.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 18-iyuldagi "Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-269-sonli qarorning mazmuni va mohiyati, unda berilgan ustuvor vazifalar nimalardan iborat?

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 15-maydagi "2025-2026 yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rnini va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli Farmoning mohiyatini tushuntiring.

8. Mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirishga doir islohotlarning mazmuni va ijtimoiy samarasi nimalardan iborat?

9. Ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni misollar bilan tushuntiring.

10. Turistik zonalar va dam olish maskanlarini rivojlantirish bo'yicha qanday infratuzilmaviy loyihalar amalga oshirilmoqda?

11. Transport xizmatlari va infratuzilmasini rivojlantirish turizmida qanday o'rin tutadi?

12. Turizm va madaniy meros ob'ektlari infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha qanday strategiyalar mavjud?

13. Ichki turizmni rivojlantirishda ko'ngilochar tadbirlar va dam olish maskanlarining roli qanday baholanmoqda?

14. Mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan asosiy islohotlar mohiyatini tahlil qiling.

15. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini tashkil etilishi qanday iqtisodiy natijalarni bermoqda?

16. Yangi O'zbekiston strategiyasida 2026 yilga qadar eksport hajmini 30 mlrd AQSH dollariga yetkazish bo'yicha qanday chora-tadbirlar belgilangani haqida ma'lumot bering.

17. Raqamli iqtisodiyotni asosiy "Drayver" sohaga aylantirish bo'yicha qanday islohotlar amalga oshirilmoqda?

18. 2022 yil 21 iyundagi O'zbekiston va Ozarbayjon Prezidentlari muzokaralarida muhokama qilingan iqtisodiy hamkorlik yo'nalishlarini sanab bering.

19. O'zbekistonning turizm sohasidagi asosiy hamkor davlatlari va ular bilan hamkorlik yo'nalishlari haqida qanday ma'lumotga egasiz?

20. Xalqaro miqyosda turistlarni avtomobil transportida tashish munosabatlari qanday bitim asosida tartibga solinadi?

21. Turizm mamlakatlarida tashkil etilgan turizm politsiyasining asosiy funksiyalari nimadan iborat?

22. Turizmning mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi tutgan o'rnini va ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?

23. Turizm sohasining mamlakat ijtimoiy hayotida tutgan o'rnini misollar orqali izohlang.

24. Turizm sohasida investitsiyaviy jozibadorlikning bugungi holati haqida qanday fikrdasiz?

25. Mamlakatimizda zamonaviy turizmni rivojlantirish siyosatining asosiy yo'nalishlarini sanab o'ling.

26. Turizm sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi nimadan iborat?

27. Turizmni rivojlantirishda xalqaro tashkilotlarning o'rnini va roli qanday baholanmoqda?

28. Ekologik turizmni rivojlantirish bo'yicha qanday amaliy ishlar olib borilmoqda?

29. Turizm xizmatlari hajmini oshirish borasida amalga oshirilayotgan loyihalar haqida so'zlab bering.

30. "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy va xorijiy turistlar sonini oshirish bo'yicha qanday chora-tadbirlar rejalashtirilgan?

31. Turizmning mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi tutgan o'rnini va ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?

32. Turizm sohasining mamlakat ijtimoiy hayotida tutgan o'rnini misollar orqali izohlang.

33. Turizm sohasida investitsiyaviy jozibadorlikning bugungi holati haqida qanday fikrdasiz?

34. Mamlakatimizda zamonaviy turizmni rivojlantirish siyosatining asosiy yo'nalishlarini sanab o'ling.

35. Turizm sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi nimadan iborat?

36. Turizmni rivojlantirishda xalqaro tashkilotlarning o'rnini va roli qanday baholanmoqda?

37. Ekologik turizmni rivojlantirish bo'yicha qanday amaliy ishlar olib borilmoqda?
38. "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy va xorijiy turistlar sonini oshirish bo'yicha qanday chora-tadbirlar rejalashtirilgan?
39. Sayyohlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha mamlakatda qanday tizimlar joriy etilgan?
40. Turizmni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlari yaratish borasida qanday natijalarga erishilmoqda?
41. Yoshlar turizmini rivojlantirish bo'yicha qanday tashabbuslar mavjud?
42. Oilaviy turizmni qo'llab-quvvatlash siyosatining mazmuni nimalardan iborat?
43. Mintaqaviy turizmni rag'batlantirish orqali hududlar rivojiga qanday hissa qo'shilmoqda?
44. O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirishning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati nimada?
45. O'zbekistonning turizm brendini shakllantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar qanday natijalar bermoqda?
46. Turizm sohasi mutaxassislarini tayyorlash tizimining bugungi holati qanday?
47. Turizm yo'nalishida kasbiy ta'lim sifati va malaka oshirish dasturlarining samaradorligini qanday baholaysiz?
48. Turizm xizmatlarini eksport qilish imkoniyatlari va istiqbollari haqida fikringizni bildiring.
49. Sayyohlik firmalari va agentliklari faoliyatini tartibga soluvchi me'yorlar qanday takomillashtirilmoqda?
50. Turizm statistikasi va tahlil tizimi orqali qanday ma'lumotlar shakllantiriladi va qanday qarorlar qabul qilinadi?
51. Turizmning iqtisodiyot tarmog'i sifatidagi evolyutsiyasi va rivojlanish bosqichlari.

II. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish)

1. Sizningcha, turizm sohasini kasb sifatida tanlashingizga nima sabab bo'lgan?
2. Ushbu kasbni tanlashda Siz uchun nimalar muhim bo'lgan: daromad, ijtimoiy mavqe, Vatanga xizmat qilish yoki shaxsiy qiziqish?
3. Turizm yo'nalishida o'qish va ishlashga qaror qilganingizga sabab bo'lgan shaxsiy ustuvorliklaringiz qanday?
4. Turizm sohasi boshqa kasblardan qanday jihatlari bilan ajralib turadi deb o'ylaysiz?
5. Turizm mutaxassisi bo'lish uchun inson qanday shaxsiy fazilatlarga ega bo'lishi kerak?
6. Turizm sohasida faoliyat yurituvchi xodimlar uchun kasbiy etikaning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?

7. Turizm sohasi tadbirkorlik rivojiga qanday hissa qo'shadi?
8. Siz tanlagan kasbning boshqa kasblarga nisbatan qiyin yoki noqulay jihatlari haqida nimalarni ayta olasiz?
9. Turizm sohasi mutaxassislari tashkilotlarda qanday funksiyalarni bajaradi?
10. Turizm bo'yicha mutaxassisning asosiy majburiyatlarini sanab bering.
11. Turizmga bo'lgan qiziqishingizni beshta asosli dalil bilan izohlang.
12. Hozirda turizm faoliyat yuritayotgan mutaxassislarda Siz havas qiladigan qanday fazilatlar bor?
13. Jahon miqyosida taniqli bo'lgan turizm sohasi mutaxassislardan kimlarni bilasiz?
14. Turizm kasbini tanlashingizga turtki bo'lgan asosiy sabablar nimalar?
15. Nega aynan turizm sohasini tanladingiz? Javobingizni dalillar bilan asoslang.
16. Bugungi kunda yoshlarda turizm sohasi kasbiga qiziqish qanday darajada?
17. Turizm sohasida muvaffaqiyatli bo'lish uchun qaysi bilim va ko'nikmalar eng muhim deb hisoblanadi: nazariy, amaliy, IT bilimlari, chet tillari yoki shaxsiy sifatlar?
18. Yaxshi va etuk turizm mutaxassisi bo'lish uchun nimalarga e'tibor qaratish zarur?
19. Turizm muvaffaqiyatli ishlash uchun insonda qanday bilim va fazilatlar bo'lishi kerak?
20. Sizningcha, hozirgi kunda O'zbekistonda turizm sohasi rivojlanmoqda deb hisoblaysizmi? Fikr-mulohazalaringizni dalillar bilan asoslang.
21. Turizmga bo'lgan qiziqishingizning asosiy sabablarini aytib bering.
22. Turizmga bo'lgan moyillik va qiziqishingizni qanday isbotlay olasiz?
23. Kelajakda O'zbekiston turizmi rivojini qanday tasavvur qilasiz?
24. Turizmni kasb sifatida tanlashingizga nima turtki bo'ldi?
25. Bu sohani o'zingiz mustaqil tanladingizmi yoki yaqinlar tavsiyasi asosidami?
26. Turizm sohasiga oid asosiy ma'lumotlarni qayerdan oldingiz?
27. Ushbu sohaga kirishda asosiy niyatingiz va maqsadlaringiz nimalardan iborat?
28. Sizningcha, turizm sohasi Sizning shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlaringizga mos keladimi?
29. Umuman olganda, kasb tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak deb o'ylaysiz?
30. Turizm kasbini tanlashdagi asosiy ichki motivlaringiz nimalardan iborat?
31. Turizm sohasiga bo'lgan moddiy va ma'naviy motivlaringiz qanday?
32. Qaysi asosiy sabablarga ko'ra turizmni kasb sifatida tanladingiz?
33. Kelajakda ushbu sohada qanday yutuqlarga erishishni rejalashtiryapsiz?
34. Turizm sohasining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni tushuntiring.
35. Turizmning asosiy ob'yektlari haqida tushuncha bering.
36. Turizmga bo'lgan qiziqishingizning ustun jihatlari nimalardan iborat?

37. Turizm sohasi bilan bog'liq bo'lgan ma'naviy qadriyatlar haqida tushuntiring.

38. Turizm xodimlariga qo'yiladigan asosiy talablarni sanab o'ting.

39. Turizm mutaxassisining kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan asosiy talablar qanday?

40. O'zbekistonda turizm sohasida xizmatlar sifati va mijozlar ehtiyojini qondirish borasida qanday o'zgarishlar kuzatilmoqda?

41. Sizningcha, zamonaviy turizmda raqamlashtirish va IT texnologiyalar qanday rol o'ynamoqda?

42. Pandemiya davrida turizm sohasida qanday muammolar yuzaga keldi va ularni bartaraf etish uchun qanday choralar ko'rildi?

43. Siz turizm sohasida ixtisoslashgan qaysi yo'nalishda ishlashni maqsad qilgansiz va nima uchun aynan shu yo'nalishni tanlagansiz?

44. Yurtimizda ichki turizmni rivojlantirish uchun qanday amaliy takliflar bera olasiz?

45. Sizningcha, sayyohlar uchun xavfsizlikni ta'minlashda turizm xodimining o'rni qanday?

46. Turizm sohasida xalqaro tajriba va hamkorlikning ahamiyati haqida fikringiz qanday?

47. Mamlakatimizda turizm infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan qanday loyihalarni bilasiz?

48. Ekoturizm, agro, etno va sog'lomlashtiruvchi turizm kabi yo'nalishlar haqida nimalarni bilasiz?

49. Turizm sohasida kasbiy faoliyat yuritayotgan tanishlaringiz bormi? Ular sizga qanday motivatsiya beradi?

50. Turizm samarali boshqaruv va menejment qanchalik muhim va bu boradagi bilimlaringizni qanday baholaysiz?

III. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari)

1. Turizm mutaxassisi uchun xushmuomalalik va e'tiborli bo'lish qanday ahamiyatga ega deb o'ylaysiz? Fikringizni asoslab bering.

2. Turizm sohasi vakili uchun tashabbuskorlik qanday o'rin tutadi?

3. Turizm sohasida shaxsiy yutuqlar va o'zini rivojlantirish mutaxassislik faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

4. Turizm mutaxassisi egallashi lozim bo'lgan asosiy kasbiy fazilatlar nimalardan iborat?

5. Ushbu soha vakillarida bo'lishi zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlar haqida fikringiz qanday?

6. Sizningcha, shaxsiy va kasbiy fazilatlar kasbiy muvaffaqiyatga qanday darajada yordam beradi?

7. Sizda shaxsiy fazilatlar ko'proqmi yoki kasbiy fazilatlar ko'proqmi, nima uchun?
8. Sizning qiziqishlaringiz tanlagan kasbingizga qay darajada mos keladi?
9. Nima sababdan aynan turizm sohasini kasb sifatida tanlagansiz?
10. Bo'sh vaqtingizda qanday mashg'ulotlar bilan shug'ullanasiz? Bu xobbilaringiz siz tanlagan soha bilan qanday bog'liq?
11. Sizning qobiliyatingiz va kasbiy bilimlaringiz turizm korxonasi taraqqiyotiga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin?
12. Mijozlar sonini oshirish uchun turizm korxonalari nimalarga alohida e'tibor qaratishi kerak deb hisoblaysiz?
13. Turizm bozorida raqobatbardosh bo'lish uchun turizm korxonalariga qanday takliflar bera olasiz?
14. Hamkasblar bilan teng mavqe asosida munosabat yuritish uchun qanday tamoyillarga amal qilasiz?
15. Rahbar bilan do'stona va samimiy munosabatda bo'lishda qanday usullardan foydalanasiz?
16. Siz uchun qaysi boshqaruv usuli samarali deb hisoblanadi va nima uchun?
17. Turizm korxonalarida ichki tartib-intizomni buzilishi mumkin bo'lgan omillar nimalardan iborat?
18. Nima uchun turizm xodimlariga aniq kasbiy va professional talablar qo'yilishi zarur deb o'ylaysiz?
19. Kadrlarda doimiylik bo'lmasligi muammosi qanday holatlarda yuzaga keladi va bu borada qanday takliflaringiz bor?
20. Mehnat jamoasida ma'naviy barkamollik qanday rol o'ynaydi va bu rahbar-xodim munosabatlariga qanday ta'sir ko'rsatadi?
21. Turizm sohasida rahbar va xodimlar uchun qanday talablar qo'yilishi lozim deb hisoblaysiz?
22. Mutaxassislarning jismoniy salomatligi va ishga layoqati turizm sohasida qanday o'rin tutadi?
23. Mehmonxona xizmatlarini modernizatsiya qilish uchun qanday islohotlar zarur deb o'ylaysiz?
24. Turistlarga yangi xizmatlarni taklif etishda qanday kafolatlarni berish mumkin?
25. Mehmonxonalarda qanday nizoli holatlar vujudga keladi? Ular odatda nima bilan bog'liq bo'ladi?
26. Siz rahbar yoki xodim sifatida nizolarni qanday usullar bilan hal qilgan bo'ladingiz?
27. Turizm sohasida raqobat va nizo o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar haqida fikringiz qanday?
28. Malakali mutaxassis bo'lish uchun yana qanday talablar qo'yilishi kerak deb hisoblaysiz?
29. Siz uchun "ishga layoqat" tushunchasi nimani anglatadi va xodimning layoqatini qanday aniqlash mumkin?
30. Turizm sohasi uchun intellektual salohiyatmi yoki fahm-farosat muhimroq deb hisoblanadi?

31. Turizm kasbi uchun intellektual rivojlanish qanday o‘rin tutadi?
32. Sizningcha, turizm sohasida kreativ fikrlash kerakmi? Fikringizni asoslang.
33. Mavsumdan tashqari davrlarda turizm kasb egalari qanday strategiyalarni qo‘llashi mumkin?
34. Qanday holatlarda turizm xizmatlari narxlarini oshirish yoki tushirish zarur bo‘ladi?
35. Ichki turizmni rivojlantirish uchun nomavsum davrida qanday amaliy islohotlar amalga oshirilishi lozim?
36. Xorijiy sayyohlarni jalb etish uchun qanday tadbirlar va tashabbuslar samarali deb hisoblanadi?
37. “Vatanparvarlik – mahorat – innovatsiya” tushunchasining turizm bilan qanday bog‘liqligi bor deb hisoblaysiz?
38. Tanlagan kasbingizda madaniyat, axloqiy me‘yorlar va estetik did qanchalik muhim?
39. Siz qanchalik sabrli odamsiz? Noto‘g‘ri yoki nohaq munosabatlarga qanday javob berasiz?
40. Sodiqlik siz uchun qanday tushuncha? Kasbiy sodiqlikning mukofoti nimada deb hisoblaysiz?
41. O‘zingizni vatanparvar deb hisoblaysizmi? Oila, jamiyat va Vatan oldidagi burchlaringiz nimalardan iborat?
42. Muhim qarorlarni qabul qilishda maslahat olishga ehtiyoj seziladimi? Kimlardan va nima sababdan?
43. Raqobatchilarga nisbatan hurmat va ehtiromni qanday namoyon qilasiz?
44. Sizda axborot texnologiyalariga va innovatsiyalarga ehtiyoj qay darajada mavjud? Buni qanday izohlaysiz?
45. Mehmondo‘stlik siz uchun nimani anglatadi? Korxonangizga tashrif buyurgan mijozlarga qanday muomala ko‘rsatasiz?
46. Yangi muhitga moslashish tezligingiz qanday? Buning sababi nimada deb o‘ylaysiz?
47. Qiyin va ziddiyatli vaziyatlarda o‘zingizni qanday boshqarasiz?
48. Tashqi ko‘rinish va didli kiyinish turizm sohasida qanday ahamiyat kasb etadi?
49. Tanlagan kasbingizda muvaffaqiyatga erishish uchun eng zarur deb hisoblagan 5 asosiy shartni sanab o‘ting.
50. Turizm sohasida kasbiy bilim muhimroqmi yoki hayotiy tajriba? Fikringizni asoslab bering.
51. Turizmda psixologik bilimlar qanchalik zarur? Sizningcha, bu bilimlar qanday vaziyatlarda foydali bo‘ladi?
52. O‘zbekistonda turizm sohasida xizmatlar sifati va mijozlar ehtiyojini qondirish borasida qanday o‘zgarishlar kuzatilmoqda?
53. Sizningcha, zamonaviy turizmدا raqamlashtirish va IT texnologiyalar qanday rol o‘ynamoqda?
54. Pandemiya davrida turizm sohasida qanday muammolar yuzaga keldi va ularni bartaraf etish uchun qanday choralar ko‘rildi?

55. Siz turizm sohasida ixtisoslashgan qaysi yo'nalishda ishlashni maqsad qilgansiz va nima uchun aynan shu yo'nalishni tanlagansiz?

56. Yurtimizda ichki turizmni rivojlantirish uchun qanday amaliy takliflar bera olasiz?

57. Sizningcha, sayyohlar uchun xavfsizlikni ta'minlashda turizm xodimining o'rni qanday?

58. Turizm sohasida xalqaro tajriba va hamkorlikning ahamiyati haqida fikringiz qanday?

59. Mamlakatimizda turizm infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan qanday loyihalarni bilasiz?

IV. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi

1. Turizm subyekti" va "turizm obyekti" tushunchalarini sharhlab bering. (Tayanch iboralar: *turoperator, turagent, turistik korxonalar va infratuzilma*)

2. Joylashtirish vositalari tuzilmasi qanday bo'limlardan iborat? Har bir bo'limning vazifalarini izohlang. (Tayanch iboralar: *Front Office, marketing, ovqatlanish*)

3. Buxoro viloyatining turistik salohiyati nimalarda namoyon bo'ladi? (Tayanch iboralar: *Tarixiy-madaniy obyektlar, ziyorat va ekoturizm misolida*)

4. Mehmondo'stlik industriyasida faoliyat yurituvchi ovqatlanish korxonalarini sanab bering va ularning funksiyalarini qisqacha izohlang (Tayanch iboralar: *mehmonxona restoranlari, kafe, barlar*).

5. Ovqatlanish korxonalarida taklif qilinadigan menyu turlari qanday? (Tayanch iboralar: *"A La Carte", "Table d'Hôte" va "Prix Fixe" menyularining o'ziga xos xususiyatlari*)

6. Turizm turlariga ta'rif bering. (Tayanch iboralar: *Ekologik, ziyorat, ekstremal va qishloq turizmi*).

7. Turizm shakllari qanday farqlanadi? (Tayanch iboralar: *Kirish, chiqish va xalqaro turizm*).

8. Mehmonxona xizmatlarining asosiy turlarini sanab bering. (Tayanch iboralar: *Restoran, transport va boshqa qo'shimcha xizmatlar*).

9. Sayr-tomoshalar va ko'ngilochar xizmatlar turistik infratuzilmaning qanday elementlaridan iborat? (Tayanch iboralar: *mehmonxona, animasiyon dasturlar, ob'ektlar, animasiya*).

10. Ekskursiya xizmatlari qanday tashkil etiladi? (Tayanch iboralar: *ekskursiya xizmatlari, ziyorat obyektlari, tarixiy monumentlar*).

11. Mehmonxona biznesida mavsumiylik tushunchasi nimani anglatadi? (Tayanch iboralar: *mehmonxona, talab, biznes, mavsumiylik, taklif*)

12. Mehmonxonalarda mijozlar segmentatsiyasi qanday amalga oshiriladi? (Tayanch iboralar: *mehmonxona, daromad, ishbilarmonlik, mehmonlar*).

13. Mehmonxona hayotiy siklining bosqichlarini izohlang. (Tayanch iboralar: *mehmonxona, bozor, talab, raqobat*).

14. Kadrlarni tanlashda zamonaviy texnologiyalarning o'rnini qanday? *(Tayanch iboralar: kadrlar qo'nimsizligi, texnologiya, suhbat).*

15. Korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatish xususiyatlari nimalardan iborat? *(Tayanch iboralar: bonuslar, chegirmalar, shartnoma, mehmonxona xizmatlari).*

16. Turizm turlari qanday mezonlarga ko'ra tasniflanadi? *(Tayanch iboralar: maqsadlar bo'yicha, ishtrok etuvchilar soni bo'yicha, tashkiliy shakllari bo'yicha, moliyalashtirish manbai bo'yicha).*

17. Bronlashtirish tizimi qanday tashkil etiladi? *(Tayanch iboralar: bronlashtirish, booking.com, mehmonxona).*

18. Turizmning asosiy maqsad va vazifalarini izohlang. *(Tayanch iboralar: dam olishga bo'lgan ehtiyojni maksimal qondirish, keng tanlash imkoniyatini yaratish, talab va taklifni o'rganish).*

19. Turistik tovar va xizmatlarning hayotiy davri qanday bosqichlardan iborat? *(Tayanch iboralar: bozorga kirish, o'sish, yetuklik, bozordan chiqish).*

20. Turizm turlarining o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat? *(Tayanch iboralar: harakatlanish usuli bo'yicha, joylashtirish vositalari bo'yicha, ovqatlantirish vositalari bo'yicha).*

21. Turizm faoliyatini axborot bilan ta'minlash tizimi qanday tashkil etiladi? *(Tayanch iboralar: marketing axboroti, birlamchi va ikkilamchi axborotlar, marketing axborot tizimi, axborot yig'ish usullari).*

22. Faol harakatlanuvchi turizm turlarining turlari va ularning asosiy xususiyatlarini sharhlab bering. *(Tayanch iboralar: tog' turizmi, jismoniy harakat, ekstremal dam olish).*

23. Turizmning passiv turlariga qanday misollar keltirish mumkin? Ushbu turlar qanday xususiyatlarga ega? *(Tayanch iboralar: tanishish turizmi, sog'lomlashtiruvchi turizm).*

24. Ekologik turizmga qo'yiladigan asosiy talablar nimalardan iborat? *(Tayanch iboralar: xavfsizlik, tozalik, tabiat bilan uyg'unlik, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik).*

25. Turistik mahsulotlarni sotish kanallari qanday turlarga bo'linadi va ularning har biri qanday afzalliklarga ega? *(Tayanch iboralar: bir pog'onali kanal, ko'p pog'onali kanal, to'g'ridan-to'g'ri sotuv).*

26. Turistik-rekreatsioon faoliyat klasterining iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan bajaradigan muhim vazifalari nimalardan iborat? *(Tayanch iboralar: turistik resurslarni ro'yxatga olish, ichki va tashqi turizmni rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash).*

27. Sotsial turizm tushunchasi qanday talqin etiladi? Ushbu yo'nalishning jamiyatdagi o'rnini va ahamiyati nimada? *(Tayanch iboralar: ijtimoiy himoya, ijtimoiy ehtiyoj, moliyaviy manbalar).*

28. Turizm sohasida PR, sotishni rag'batlantirish va shaxsiy sotuv usullarining mohiyati nimadan iborat? *(Tayanch iboralar: jamoatchilik, xodimlarni rag'batlantirish, turistlarni rag'batlantirish, turistik agentliklar).*

29. "Turizm" tushunchasining mazmuni va turli manbalarda berilgan ta'riflarini tahlil qiling. *(Tayanch iboralar: BTT ta'rif, turistik bozor, ehtiyoj, talab, dam olish, moliyalashtirish).*

30. Turistik korxonalarning ichki va tashqi muhiti qanday omillar bilan shakllanadi? Ularning o'zaro ta'sirini izohlang. (*Tayanch iboralar: turistlar, turoperatorlar, raqobatchilar, siyosiy, iqtisodiy omillar*)

31. Turizm sohasidagi ixtisoslik yo'nalishlari haqida ma'lumot bering (*Tayanch iboralar: turoperatorlik, mehmonxona ishi, ekskursovodlik, ovqatlanish xizmati*).

32. Turistik faoliyatning iqtisodiyotdagi o'rni va rolini qanday baholaysiz? (*Tayanch iboralar: yalpi ichki mahsulot, xizmat ko'rsatish sohasi, valyuta tushumlari*).

33. Turizm sohasida amalga oshirilayotgan innovatsion texnologiyalar haqida fikringiz qanday? (*Tayanch iboralar: raqamli xizmatlar, onlayn bronlashtirish, mobil ilovalar*).

34. Turizm xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirishning zamonaviy yondashuvlari nimalardan iborat? (*Tayanch iboralar: mijozlar ehtiyoji, xizmat sifati, madaniy muloqot*).

35. Turizm transport infratuzilmasining roli va ahamiyatini tushuntiring (*Tayanch iboralar: havo transporti, temir yo'l, avtobus, logistika*).

36. O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini izohlang (*Tayanch iboralar: tabiiy resurslar, biosfera hududlari, yashil turizm*).

37. Turizm reklama va marketing faoliyatining o'rni haqida nima deya olasiz? (*Tayanch iboralar: targ'ibot, brending, reklama strategiyasi, savdo*).

38. Mehmonxona xizmatlarida mijozlar ehtiyojini aniqlash va tahlil qilishning usullarini tushuntirib bering (*Tayanch iboralar: so'rovnoma, reytinglar, tahlil, feedback*).

39. Turizm xizmat sifatini baholash mezonlari qanday belgilanadi? (*Tayanch iboralar: ISO standartlari, mehmonlar fikri, xizmat darajasi*).

40. Turistik mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlash tizimi haqida ma'lumot bering (*Tayanch iboralar: sifat nazorati, lisenziyalash, reglament*).

41. Turizm sohasida mehnat bozori va bandlik darajasining o'zaro bog'liqligi haqida tushuncha bering (*Tayanch iboralar: ishchi o'rinlari, bandlik, turizm iqtisodiyoti*).

42. Turizm xizmatlarining raqobatbardoshligini ta'minlovchi omillarni sanab bering (*Tayanch iboralar: narx, xizmat sifati, hududiy joylashuv, marketing*).

43. Turistik marshrut tuzishda e'tiborga olinadigan asosiy omillar nimalardan iborat? (*Tayanch iboralar: transport yo'nalishi, vaqt, ob'ektlar, xarajat*).

44. Turizm xizmat ko'rsatuvchi xodimlar malakasini oshirish yo'llarini izohlang (*Tayanch iboralar: o'qitish, trening, stajirovka, sertifikat*).

45. Turizm sohasida ijtimoiy mas'uliyatli yondashuv deganda nimani tushunasiz? (*Tayanch iboralar: ekologik muhofaza, mahalliy aholiga foyda, barqaror rivojlanish*).

46. Turizm iste'molchilar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini tushuntirib bering (*Tayanch iboralar: shikoyat, sug'urta, qonunchilik, javobgarlik*).

47. O'zbekistonda mehmonxona xizmatlari ko'rsatish bo'yicha sertifikatlash tartibini tushuntirib bering (*Tayanch iboralar: yulduz tizimi, standartlar, sinflar*).

48. Turizmda brend yaratish va uning marketingdagi o'rni haqida tushuncha bering (*Tayanch iboralar: logotip, imij, turistlar jalb qilish, tanilganlik*).

49. Ekskursovodlar tayyorlash tizimi va ularning kasbiy vazifalari haqida ma'lumot bering (*Tayanch iboralar: ekskursiya metodikasi, kasbiy malaka, til bilimi*).

50. Turizm xizmatlar ko'rsatish etikasi va xulq normalari haqida qanday fikrdasiz? (*Tayanch iboralar: madaniyat, kommunikatsiya, muomala, odob-axloq*).

51. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida turizmga qanday ustuvor yo'nalishlar belgilangani haqida izoh bering (*Tayanch iboralar: milliy mahsulot, infratuzilma, xalqaro hamkorlik, xizmatlar sifati*).

Mazkur suhbat savollari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-yanvardagi "Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 17-son qaroriga asosan tayyorlandi.

Suhbat jarayonida bitiruvchilarning har biriga

1) Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish.

2) Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivasiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish).

3) Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari).

4) Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi bo'yicha jami to'rtta savol beriladi.

Har bir variantda 4 tadan savollar mavjud bo'lib, ularning natijalari:

- birinchi savol uchun – 20 ball;
- ikkinchi savol uchun – 15 ball;
- uchinchi savol uchun – 15 ball;
- to'rtinchi savol uchun – 50 ballik tizim bo'yicha baholanadi.

Savollar uchun eng yuqori ball – 100 ballni tashkil etadi. Suhbat natijalari quyidagi mezonlar bo'yicha to'plagan umumiy bali quyidagicha baholanadi.

T/r.	Baho	Xususiy ball
1	A'lo	90,0-100
2	Yaxshi	78,1-89,9
3	Qoniqarli	67,0-78,0
4	Qoniqarsiz	0-66,9